

UDC: 342.9(045)(575.1)

MA'MURIY AKTNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: TAKLIF VA MUAMMOLAR

Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi o'qituvchisi

ORCID: 0000-0001-7134-0094

e-mail: yusuf_saidazimov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'muriy akt tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, nazariy va amaliy izlanishlar natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni uchun bir qancha taklif va tafsiyalar keltirilgan. Ma'muriy tartib-taomillarning davlat boshqaruvin sohasidagi o'rni va ahamiyati, ma'muriy organlar tomonidan chiqariladigan ma'muriy aktlarning belgilari, o'ziga xosligi va ahamiyati borasida ilmiy asoslangan tahlillar keltirilgan. Shu bilan birga, ma'muriy aktning qo'llanilishi, ma'muriy aktning ma'muriy huquqdagi o'rni va ahamiyati batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari, ma'muriy aktini o'zgartirish va bekor qilishning o'ziga xos xususiyatlari, tartib-taomillari va ahamiyati borasida xorijiy va milliy olimlarning ilmiy izlanishlari va xulosalari tahlil qilingan va o'rganib chiqilgan. Shuningdek, ma'muriy aktini manfaatdor shaxsnинг shikoyati va arizasiga ko'ra o'zgartirish va bekor qilish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan o'zgartirilishi va bekor qilinishining o'ziga xos xususiyatlari va qonunchilikda aks etishi borasida ilmiy asoslangan fikrlar berilgan. Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan xulosalar asosida qonunchiligidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ma'muriy huquq, ma'muriy tartib-taomil, ma'muriy munosabat, ma'muriy akt, ommaviy vakolat, o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish, litsenziya, ruxsat beruvchi hujjat, bekor qilish, siyosiy partiyalar, faoliyatni tugatish, tadbirkorlik subyektlari, manfaat.

ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЕНИЯ И ОТМЕНЫ АДМИНИСТРАТИВНОГО АКТА: ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ

Сайдазимов Юсуф Содик угли,

преподаватель кафедры

«Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье научно проанализировано понятие должностного акта и его специфические особенности, в результате теоретических и практических исследований был внесен ряд предложений, в том числе по поправкам в Закон Республики Узбекистан «Об административных процедурах». Представлен научно обоснованный анализ места и значения административных процедур в сфере государственного управления, признаков, специфики и значения административных актов, издаваемых административными органами. При этом подробно раскрывается применение административного акта, роль и значение административного акта в административном праве. Кроме того, на основе научных

исследований и выводов зарубежных и отечественных ученых были проанализированы и изучены особенности, процедуры и значение изменения и отмены административного акта. Предложения и поправки в законодательство разработаны на основе научно обоснованного мнения и выводов, анализа опыта развитых зарубежных стран по изменению и отмене административного акта по жалобе и заявлению заинтересованного лица, особенностям их изменения и отмены другими органами в случаях, предусмотренных законодательством, а также их отражению в законодательстве.

Ключевые слова: административное право, административная процедура, административное отношение, административный акт, орган государственной власти, изменение, отмена и признание недействительным, лицензия, разрешение, отзыв, политические партии, прекращение деятельности, субъекты хозяйствования, интересы.

THE PECULIARITIES OF THE AMENDMENT AND ABOLITION OF THE ADMINISTRATIVE ACT: PROPOSALS AND CIRCULATIONS

Saidazimov Yusuf Sodiq ugli,

Lecturer of the Department of
Administrative and Financial law,
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the concept of the Civil Service Act is analyzed scientifically and as a result of theoretical and practical research, several proposals and interpretations are presented of the law on administrative procedures of the Republic of Uzbekistan. The role and importance of administrative procedures in the field of Public Administration, scientifically based analysis of the definition, self-productivity and importance of administrative acts issued by administrative bodies are presented. At the same time, the application of the administrative act, the role and importance of the administrative act in the administrative law are explained in detail. It has also been analyzed and examined on the basis of scientific research and conclusions of foreign and National Scholars on the specific features, procedures and significance of the amendment and abolition of the administrative act. There are also scientifically based opinions on the amendments and repeals of administrative acts on the basis of complaints and applications of the interested person, the specifics of changes and repeals by other bodies in cases provided by law, and their reflection in the legislation. At the same time, based on the experience of developed foreign countries, proposals and recommendations for our legislation have been developed.

Keywords: administrative law, administrative procedure, administrative attitude, administrative act, public authority, change, cancellation and finding invalid, license, permit, revocation, media, political parties, termination of activity, business entities, interest.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ-457-son Qonunining qabul qilinishi ma'muriy huquq sohasida yangi davrni boshlab berdi. Bugungi kunda ushbu qonun asosida juda ko'plab savollarga javob topilgan bo'lsa-da, qonun amaliyotni to'liq qamrab olishi uchun, ma'muriy munosabatlarni to'liq tartibga solish uchun o'zgarishlarga muhtoj. Shu o'rinda ma'muriy huquqning eng

muhim institutlaridan biri bu ma'muriy aktlar ekanligini ta'kidlagan holda ushbu maqolada ma'muriy aktni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda amaliyotda uchrayotgan muammolar va bu muammolarni to'g'ri va qonuniy asoslash uchun yetarli asoslar va takliflar keltirib o'tiladi.

Bevosita ma'muriy aktga keladigan bo'lsak, ma'muriy aktlar turli davlatlarda turlicha nomlanishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, MDH davlatlarida hozirga qadar

ma'muriy akt "Davlat ma'muriyatining aktlari" [1], "Boshqaruvning huquqiy aktlari" [2], "Ma'muriy hujjat" deb nomlanishini ko'rishimiz mumkin.

Ma'muriy akt – bu davlatning ma'muriy vakolatlari doirasida o'z xohish-irodasini mamlakatda yashovchi boshqa xususiy yoki davlat subyektlarining erkinliklari, manfaatlari yoki huquqlariga tatbiq etish uchun har qanday ixtiyoriy deklaratsiyadan yoki davlatning ommaviy vakolatlarini namoyish etishdan iborat hujjat, harakat va belgi hisoblanadi. Ya'ni, bu ma'muriy hokimiyating bir tomonlama va majburiy ravishda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan formulasidir. Bu yerda davlat instituti aniq bir masalada qaror qabul qilish uchun o'z irodasini aniq va tashqi ko'rinishda bayon qiladi.

Bu borada I.M. Lazarev, S.S. Alaksev, I.M. TSay, I.I. Makaseva, M.K. Astanov, E. Hojiev, I.A. Hamedov, X.T. Odilqoriyev, Z.M. Islomov, J.N. Ne'matov, M.U. Eshimbetov, S.B. Yusupov, Sh.Y. Jurayev, G'. Hakimov, D.R. Artikovlar ilmiy izlanishlari natijasida o'z qarashlarini va fikrlarini bildirib o'tishgan.

Ma'muriy akt bugungi kunga qadar ma'muriy huquq sohasida juda ko'plab olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda hamda ko'plab olimlar fikrlarini va o'z nazarlarini bildirishgan. Jumladan, S.Z. Jente'l ma'muriy tartib-taomillar fuqarolarning (ommaviy) ma'muriyat bilan bo'ladigan huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan munosabatlar ro'yobga chiqarishiga qaratilgan hujjatlar va xatti-harakatlar deya ta'kidlagan. Ushbu fikrga qo'shilgan holda davom ettiradigan bo'lsak, yuridik fanlar doktori J. Ne'matov ma'muriy aktga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'muriy akt – bu ma'muriy huquqning markaziy instituti deya ta'kidlaydi. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, tegishli organlar va mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari odatda akt shaklda tuziladi va bu aktlar normativ yoki normativ

bo'lmanan xarakterga yega bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi to'rtta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi, ma'muriy hujjat qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasi bilan, qaysi hollarda ma'muriy shikoyatga ko'ra bekor bo'lishi va o'zgartirilishi asoslari; ikkinchi, qaysi hollarda ma'muriy organ ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan, qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra bekor qilishi asoslari; uchinchi, qanday hollarda ma'muriy akt sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi; to'rtinchi, ma'muriy aktni o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslari va bekor qilishdan farqli jihatlari.

Yuqoridaq savollarga javob tariqasida muallifning pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy bilishning tahlil qilish, qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik, statistik, umumlashtirish va formal-yuridik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Ma'muriy akt ma'muriy huquq sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirishda eng muhim ahamiyat kasb etadi. Mashhur ma'muriy huquqshunos nemis olimi Otto Mayer ta'kidlaganidek, ma'muriy aktlarsiz davlat boshqaruvini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ma'muriy akt tushunchasi borasida sovet zamonaviy olimlari tomonidan ilmiy adabiyotlarda qonuniy kuchga ega bo'lgan, davlat vakolati organning irodasini ifodalovchi bir tomonlama individual shaxsga yoki ja-moaga qaratilgan, majburiyat yuklaydigan yoki muayyan huquq beradigan ma'muriy huquqiy hujjatlar yoki harakatlar sifatida e'tirof etilgan.

Ma'muriy aktni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslari qonun hujjati bilan tartibga solinsa-da, bir qator muammo va kamchiliklardan xoli emasligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, amaldagi Qonunning 59-moddasiga binoan, ma'muriy hujjat manfaatdor shaxsning arizasi yoki ma'muriy shikoyatiga ko'ra ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organ, yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan ham bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi keltirilgan.

Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchiligidan ma'muriy aktni bekor qilish, o'zgartirish va haqiqiy emas deb topish borasida quyidagi bo'shliqlarni ko'rishimiz mumkin:

birinchi masala, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga binoan, ma'muriy hujjat qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasi bilan, qaysi hollarda ma'muriy shikoyatga ko'ra bekor bo'lishi va o'zgartirilishi qonunchiligidan aniq keltirilmagan;

ikkinchi masala, qaysi hollarda ma'muriy organ ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan, qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra bekor qilishi lozimligi huquqiy jihatdan tartibga solinishi;

uchinchi masala, qanday hollarda ma'muriy akt sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin hamda haqiqiy emas deb topishning o'ziga xosligi.

Quyida rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, ekspertlarning fikrlari va ilmiy izlanishlari borasidagi tajribalarini keltirgan holda ushbu muammolarga yechim berishga harakat qilamiz.

Tadqiqot natijalari tahlil

Ozarboyjon Respublikasining "Ma'muriy ish yuritish to'g'risida"gi Qonuni hamda Germaniya Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga binoan, manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra quyidagi hollarda ma'muriy akt uni qabul qilgan ma'muriy organ yoki yuqori turuvchi ma'muriy organ yoxud boshqa vakolatlik organi tomonidan haqiqiy emas deb tan olinishi mumkin:

birinchidan, ma'muriy aktning mazmuni noaniq bo'lsa;

ikkinchidan, ma'muriy aktning mazmuni yoki bir-biriga zid bo'lsa;

uchinchidan, ma'muriy akt tegishli vakolatlarga ega bo'lмаган ma'muriy organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa, manfaatdor shaxsning arizasi bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi keltirilgan. Bu borada ko'plab ekspertlar chet el tajribalaridan kelib chiqqan holda ushbu normani milliy qonunchiligidan implementatsiya qilish "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"-gi Qonunni qo'llashda va tushunishda samarali yo'llardan biri bo'ladi deyishimiz mumkin.

Shuningdek, vakolat doirasidan chetga chiqqan holda qabul qilingan ma'muriy aktlar ham haqiqiy hisoblanmaydi. Vakolatlilik masalasi murakkabligini inobatga olgan holda bu kabi hujjatlarni faqatgina manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra haqiqiy emas deb topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, ma'muriy shikoyat qilish va sudda nizolashish imkoniyati tugagandan keyin ma'muriy akt uni qabul qilgan ma'muriy organ yoki yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan nazarda tutilgan asoslar bo'yicha va qoidalarga muvofiq bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

I.M. Tsay ma'muriy aktni bekor qilish borasida quyidagi fikrlarni bildiradi: "ma'muriy aktning adresat (manfaatdor shaxs) foydasiga yoki zarariga qabul qilishi holatlarini farqlash lozimligini, yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan ma'muriy akt bekor qilinganida rasmiy tinglash jarayoni o'tkazilishi, ishonchning himoya qilinishiga asos bo'lmaydigan holatlar, qonuniy ma'muriy akt manfaatdor zarariga bekor qilangan holatlar ta'kidlab o'tilgan" [2]. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, I. Tsay ma'muriy aktni bekor qilishning ayrim jihatlarini to'liq yoritib bermagan. I.Tsayning fikrlarini tahlil qilgan holda quyidagilarga birma-bir to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Ma'muriy aktni vakolatli organ tomonidan haqiqiy emas deb topish. Ma'muriy aktni haqiqiy emas deb topishning bekor qilishdan farqli jihat shundaki, ma'muriy aktni haqiqiy emas deb topishda uni yuridik jihatdan mavjud emas deb topish kerak bo'ladi.

Agar ma'muriy akt vakolat doirasidan chetga chiqib qabul qilingan bo'lsa, unda uni bekor qilish mumkin emas, chunki bunday harakatni odatda huquqiy sohada mavjud deb tan olishning o'zi mumkin emas. U yuridik jihatdan mavjud bo'lмаган deb hisoblanadi. Bu esa shu kabi ma'muriy aktlarni huquqni qo'llash amaliyotida yo'q qilishning eng to'g'ri usulidir.

Bugungi kunda chet ellik ekspertlarning takliflariga rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari asosida haqiqiy bo'lмаган (*o'z-o'zida haqiqiy bo'lмаган*) ma'muriy aktlarga oid moddani kiritish muhim. Sababi aniq ravshan nuqsonlari bo'lgan ma'muriy aktlar huquqiy tizimda mavjud deb tan olinishi mumkin emas. Ularni bekor qilib bo'lmaydi, chunki bu ularning haqiqiyligini tan olish deb tushunladi. Bunday holatlarda *o'z-o'zidan haqiqiy emaslik* aniq ko'rinish turgan yaroqsiz qarolarni hech bir tartib-taomilsiz bekor qilishga imkon beradi.

Shubha tug'ilgan taqdirda manfaatdor shaxs ma'muriy organdan ma'muriy aktning *o'z-o'zidan haqiqiy emasligini tasdiqlashni tab* qilishga haqli bo'ladi.

Vakolat doirasidan chetga chiqqan holda qabul qilingan ma'muriy aktlar ham haqiqiy hisoblanmaydi. Vakolatlilik masalasi murakkabligini inobatga olgan holda bu kabi hujjatlarni faqatgina manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra haqiqiy emas deb topish takrif qilindi.

Bu kabi ma'muriy aktlarni amaliyotda ko'rishimiz mumkin. Masalan, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi amaliyotida bu kabi holatlар uchramoqda. Ma'muriy aktni bekor qilishdan farqli jihat shundaki, ma'muriy aktni haqiqiy emas deb topishda uni yuridik jihatdan mavjud emas deb topish kerak

bo'ladi. Agar ma'muriy akt vakolat doirasidan chetga chiqib qabul qilingan bo'lsa, unda uni bekor qilish mumkin emas, chunki bunday harakatni odatda huquqiy sohada mavjud deb tan olish mumkin emas. U yuridik jihatdan mavjud bo'lмаган deb hisoblanadi.

Bu esa shu kabi ma'muriy aktlarni huquqni qo'llash amaliyotida yo'q qilishning eng to'g'ri yo'li hisoblanadi.

Ma'muriy aktni sud tomonidan haqiqiy emas deb topish. Sud tartibida bekor qilish shartlari saqlab qolning holda aynan qaysi holatlarda ma'muriy akt sud tomonidan bekor bo'lishi yoritilishi lozim. Bu litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni bekor qilish, OAV, siyosiy partiylar faoliyatini tugatish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tugatishga tegishli.

Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi. Ma'muriy aktni qabul qilgan organ o'z tashabbusi bilan ma'muriy aktni o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin. Ozarboyjon Respublikasi, Germaniya Bundesrespublikasi ma'muriy qonunchili-giga binoan quyidagi holatlarda Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi mumkin:

birinchidan, 2005-yil 1-oktabrdagi Ozarboyjon Respublikasining "Ma'muriy ish yuritish to'g'risida"gi Qonuniga binoan ja-moat manfaatlariga oid tahdidni bartaraf etish zarurati bo'lganda;

ikkinchidan, boshqa manfaatdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmagan yoki jamoat manfaatlarini xavf-xatarga qo'yagan holda manfaatdor shaxsning holatini yaxshilash imkoniyati paydo bo'lganda. Bu borada AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan "Ma'muriy-protsessual akt" [4] to'g'risidagi qonunga hamda Germaniya Bundesrespublikasining "Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida"gi Qonuniga nazar tashlaydigan bo'lsak ham, ushbu normalarni ko'rishimiz mumkin.

Ma'muriy aktga ma'muriy organ tomonidan o'zgartirish kiritish. Namuna. Bu bora-da O'zbekiston Respublikasi Surxandaryo viloyati Denov tuman hokimining qarorini, ya'ni tuman hokimining 2014-yil 13-iyuldaggi 270-sonli qaroriga tuzatish kiritish to'g'risida:

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 25-moddalariga, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"-gi Qonunining 59-moddasiga asosan, fuqaro Qiyametdinov Bozor Sayfudinovichning 2022-yil 10-mart kunidagi yozgan 01-5/Jsh-322-sonli arizasi hamda boshqa taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, qaror qiladi:

1. Fuqaro Qiyametdinov Bozorning 2022-yil 10-mart kunidagi yozgan arizasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining 2014-yil 13-iyuldaggi 270-sonli qarorining "2.43 bandidagi marhum Norova Burixol" so'zlari "Norova Buri" so'zlari bilan tuzatish kiritilsin.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinosbasari Sh. Lola-yeven zimmasiga yuklatilsin.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, ma'muriy aktni o'zgartirishni so'rab arizachi, ya'ni MTT to'g'risidagi qonun asosida manfaatdor shaxs ariza bilan murojaat qilmoqda. Ushbu ariza orqali tegishli ma'muriy akt o'zgartirilmoxda.

Xulosalar

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, ma'muriy aktning noqonuniyligi

manfaatdor shaxsning aybi bilan yuzaga ke-ladigan bo'lsa, Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi mumkin. Masalan, talabgor lit-senziyani soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti mavjud bo'lgan taqdir-da ma'muriy organ manfaatdor shaxsning ishonchini himoya qilmasdan Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi mumkin.

Bekor qilish tartib-taomillari, eng avvalo, uning shaxsning manfaatiga mos yoki zidligiga qarab amalga oshirilishi lozim ekanligi haqida xulosaga kelamiz. Albatta, shaxsning manfaatiga mos ravishda bekor qilish ishonchni himoya qilishni talab qilmaydi. Aksincha, shaxsning manfaatiga zid ravishda bekor qilish ishonchning himoya qilinishini kafolatlashni talab qiladi. Bekor qilishning bazaviy tasniflash ahamiyati ham shunda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ma'muriy aktni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ma'muriy aktini vakolatli organ tomonidan haqiqiy emas deb topish, ma'muriy aktni sud tomonidan haqiqiy emas deb topish, Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi kabi masalalarni qonunchiligidizda to'g'ridan to'g'ri keltirib o'tish lozim.

REFERENCES

1. Barhar S.M., Hazanov S.D. Formi i metodi deyatelnosti gosudarstvennoy adminstratsii [Forms and methods of activity of the state administration]. Yekaterburg, 1997, p. 7.
2. Xamedov I.A., Xvan L.B., TSay I.M. Ko'rsatilgan asar [Shown work]. pp. 296–300.
3. Saidazimov Y. Ma'muriy organlar tomonidan diskretsion vakolatni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Bakalavriat va magistratura talabalarining ilmiy ishlari [Peculiarities of the use of discretionary power by administrative bodies. Scientific works of undergraduate and graduate students]. Collection of scientific works on the results of the international distance scientific-practical conference. Tashkent, TSUL, 2020, vol. 562.

4. To improve the administration of justice by prescribing fair administrative procedure. Administrative procedure act. Public law. 404-79th congress. Chapter 324-2d session, p. 7.
5. Zoilboev J. Administrative reforms of education system in Uzbekistan. *Jurnal pravovih issledovaniy – Journal of Legal Studies*, 2021, spec. iss., no. 1.
6. Zoilboev J.A. New procedure for resolving investment disputes in a judicial order. International scientific and current research conferences, 2021, no. 1 (1), pp. 209–213.
7. Zoilboev J., Cyman D. Consumer protection: on the example of Uzbekistan and the European Union. *International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences*, 2022., no. 16 (01), pp. 1–8. ISSN: 2349-7793.
8. Nematov J. Improvement of Administrative Procedures in the Republic of Uzbekistan: Administrative and Legal Framework: Comparative-Legal Analysis. Tashkent, 2015, p. 86.
9. Davydov K.V. The principles of administrative procedures: comparative legal research. *Actual Issues of Public Law*, 2015, no. 4 (34), p. 18.
10. Goziev K. Democratization of state power and governance is an important condition for the principle of separation of powers. International Scientific and Current Research Conferences, 2021, no. 1 (01), pp. 124–132. Available at: <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/166/>.
11. Niyazova N., Ardatova Y., Soyipov H. Obuchenie yazikam kak osnova razvitiya yuridicheskoy nauki i obrazovaniya [Language teaching as a basis for the development of legal science and education]. *Obshchestvo i innovatsii – Society and innovation*, 2021, vol. 2, no. 2 (Apr.), pp. 137–143. DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss2-pp137-143/.
12. Isaeva F. Legal basis for evaluating and certifying the activities of a civil servant. In International Scientific and Current Research Conferences, 2021, November, pp. 100–106.
13. Artikov D. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishga oid muammolar [Problems in court proceedings on invalidation of departmental regulations]. *Jamiyat va innovatsiyalar – Society and innovation*, 2020, no. 1 (1/s), pp. 304–312. DOI: 10.47689/2181-1415-vol1-iss1/s-pp304-312/.
14. Juraev Sh. Pravo na ekologicheski bezopasnuyu jizn i zarubejnaya praktika [The right to an environmentally safe life and foreign practice]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, Spec. iss., pp. 88–91. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-88-91/.
15. Shamsieva K. Theoretical and legal issues in protecting the rights of healthcare workers. In International Scientific and Current Research Conferences, 2021, November, pp. 80–87.
16. Juraev A.N. Representative institute for the protection of the rights and legal interests of business entities in ensuring the rule of law. *Jurnal pravovih issledovaniy – Journal of Legal Studies*, 2021, Special no. 1.
17. Goziev K. Principles of tax legislation. International Scientific and Current Research Conferences, 2021, no. 1 (01), pp. 9–12. Available at: <http://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/281/>.
18. Juraeva A.B. Prior rights in trademark in Uzbekistan, China and Germany comparative study. *Yurisprudentsiya – Jurisprudence*, 2020, no. 1 (1).
19. Saidazimov Y. Teoreticheskiy i pravovoy analiz administrativnix dokumentov [Theoretical and legal analysis of administrative documents]. *Review of law sciences*, 2020, no. 3, Spec. iss., pp. 19–24. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-3-19-24/.
20. Niyazova, N., Pulatova, U., & Talipova, D. (2020). The Progressive Development of Uzbekistan on Influence of Pedagogical Staff. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(S2), 328-332. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

1 / 2022

BOSH MUHARRIR:
Tashkulov Akbar Djurabayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Salayev Nodirbek Saparbayevich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 15.03.2022-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 21,36 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 7.

TDYU tipografiyasida chop etildi.